



“Alisher Navoiy va XXI asr”

9-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Bursa, 2024-yil 8-fevral

“Ali Şir Nevai ve 21. yüzyıl”

9. ULUSLARARASI KONFERANSI

Taşkent-Bursa, 8 Şubat 2024

“Alisher Navo'i and the 21st century”

9th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Bursa, February 8, 2024



نويزىت بولغاى پىرىدى رەھىم
كەرىشىپ يوق شاندىن
كەم كەم ئەسلىقى قىدىن جىرىم

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbekiston Respublikasining
Turkiya Respublikasidagi Elchixonasi
Bursa viloyati Usmong'ozi tumani hokimligi
1326 Bursa Fatih muzeyi
Bursa Uludog' universiteti**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari

2024-yil 8-fevral

Toshkent – Bursa – 2024

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti universiteti rektori

Vahit TURK,

filologiya fanlari doktori, professor

Istanbul Kultur universiteti

Tahrir hay'ati:

Vahit Turk (Turkiya), Bulent Bayram (Qozog'iston), Funda Toprak (Turkiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Qosimjon Sodiqov (O'zbekiston), Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Emek Ushenmez (Turkiya), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Nusratullo Jumaxo'ja (O'zbekiston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Nodirbek Jo'raqo'ziyev (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rinni olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljalangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Ali Şir Nevai Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi
Türkiye'deki Özbekistan Büyükelçiliği
Bursa Osmangazi Belediyesi
1326 Bursa Fetih Müzesi
Bursa Uludağ Üniversitesi

«ALİ ŞİR NEVAİ VE XXI. ASİR»

9. Uluslararası Konferans Bildirileri

8 Şubat 2024

Taşkent - Bursa - 2024

Sorumlu Editörler:

Prof. Dr. Shuhrat SIROJIDDINOV,

Ali Şir Nevai Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi Rektörü

Prof. Dr. Vahit TÜRK,

İstanbul Kültür Üniversitesi

Yayın Kurulu:

Vahit TÜRK (Türkiye), Bülent BAYRAM (Kazakistan), Funda TOPRAK (Türkiye), Almaz ULVİ (Azerbaycan), Tanju Oral SEYHAN (Türkiye), Kasimcan SADIKOV (Özbekistan), Bakican TOKLİYEV (Özbekistan), Emek ÜŞENMEZ (Türkiye), Nurbay CEBBAROV (Özbekistan), Nusratulla CUMAHOCA (Özbekistan), Keramet MOLLAHOCAYEVA (Özbekistan), Dilnavoz YUSUPOVA (Özbekistan), Nazliye NARMURADOVA (Özbekistan), Nadirbek CORAKUZİYEV (Özbekistan), Azade TACİBAYEVA (Özbekistan)

Bu kitapta "Ali Şir Nevai ve 21. Yüzyıl" konulu 9. uluslararası konferansın bildirilerini içermektedir. Kitapta Ali Şir Nevai'nin edebi ve bilimsel mirasının klasik edebiyatımızdaki yeri ve günümüz için önemi, ayrıca şairin eseriyle ilgili metin çalışmaları ve dil biliminin sorunlarına ilişkin bilimsel makaleler de bulunmaktadır. Özbek Nevai dilbilim çalışmalarının mevcut durumu ve geleceği hakkında belli bir fikir vermesi onun önemini belirleyen faktörlerden biridir. Kitap; filoloji uzmanları, bilimsel araştırmacılar, lisans ve lisansüstü öğrencileri ve geniş bir okuyucu kitlesine yöneliktir.

Yazarların görüşleri ve eserlerin başlıklarının yazılışı yazım ve noktalama açısından farklılık gösterebilir.

**Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature**
Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Republic of Turkey
Governorate of Usmangazi, Bursa Province
1326 Bursa Fatih Museum
Bursa Uludag University

«ALISHER NAVO'I AND THE 21st CENTURY»

9th International Conference Proceedings

Tashkent - Bursa - 2024

Chief editor:

Shuhrat SIROJIDDINOV,
Doctor of Philology, Professor,
Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature

Vahit TURK,
Doctor of Philology, Professor,
Istanbul Kultur University

Editorial Board:

Vahit Turk (Turkey), Bülent Bayram (Kazakhstan), Funda Toprak (Turkey), Almaz Ulvi (Azerbaijan), Tanju Oral Seyhan (Turkey), Qosimjon Sodiqov (Uzbekistan), Boqijon To'xliyev (Uzbekistan), Emek Üşenmez (Turkey), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Nusratullo Jumaxo'ja (Uzbekistan), Karomat Mullaxo'jaeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Nodirbek Jo'raqo'ziyev (Uzbekistan), Ozoda Tojibaeva (Uzbekistan)

These are the proceedings of articles submitted to the International Scientific Theoretical Conference entitled "Alisher Navo'i and 21st Century". The digest includes the papers dealing with the role and importance of literary-scientific heritage of Alisher Navo'i in our classical literature as well as linguistic and textual issues of his works. It represents a clear image of the current state and prospects of Uzbek researches on Navo'i. The book is intended for a large scale of philologists, scientific researchers, the students of master's and bachelor's degrees, and a wide audience.

The orthography of authors' and their interpretations of works may differ from the view point of editorial board

TEZISLAR

NAVOIY VA JOMIY MAKTBULARIDA BADIY IJODGA MUNOSABAT

Shoira Axmedova

BuxDU professori, filologiya fanlari doktori

Maktub (xat, noma, ruq'a, yozishma va h.k.) insoniy mehr-muhabbatdan darak beruvchi yozma mujda sanaladi. Uzoq-yaqin qarindoshlardan, do'stlardan, tanishlardan kelgan xatlarni o'qiganda kishi qalbida, albatta, bir iliqlik uyg'onadi, yuziga tabassum yuguradi. Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy xatga juda katta e'tibor bilan qarab, uni kishilar orasidagi eng muhim aloqa vositalaridan biri sanab, maktubni obrazli tarzda «hijrondagi shu'la, tiriklik nishoni» deb ta'riflagan. Haqiqatan ham Sharq allomalari maktubot janriga katta e'tibor bergenlar [Axmedova, 2019. 7]. Abdurahmon Jomiyning maktublarini o'rgangan olim A.O'rınboyev 14-15 asrlarda bu janrning taraqqiy etganligini to'g'ri ta'kidlab o'tadi [O'rınboyev, 1984, 26].

Navoiy Samarcand, Astrobod va boshqa shaharlarda yashab turib, turli munosabat bilan turli zamondoshlariga yozgan nasriy maktublarini to'plab, «Munshaot» (Xatlar) nomi bilan kitob qiladi. Bu xatlar buyuk adibning turli vaziyatdagi kayfiyatini haqqoniy aks ettirgan tarixiy hujjatlar sifatida ham g'oyat ahamiyatlidir. «*Bir maktubki, sahifasining oqligi yarali ko'ngil jarohatiga malham bo'lgisi va bir nomaki, qora yozuvining nuqtasidan oqargan ko'zga ravshanlik beruvchi qorachig' bo'lgusidirkim, bu hijron dardi bechorasini ayriliq dashti ovorasini Ushbu xat bilan mukarram qilgan ekansiz, kelib tegdi*» [Navoiy, 2001, 64]. Shu misolning o'ziyoq Alisher Navoiyning xatga qanchalik e'tibor bergenligini yaqqol ko'rsatadi.

Shu o'rinda Bobur Mirzoning Navoiy xatlari haqidagi fikrlarini keltirib o'tishga to'g'ri keladi: «*Yana ba'zi musannafoti borkim, bu mazkur bo'lg'onlarga boqa pastroq va sustroq voqe bo'lubtur. Ul jumladin, insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyga taqlid qilib bitibtur, yig'ishtirubt*» [Bobur, 1984, 164]. Bu masalaga munosabat bildirib, navoiyshunos olim, professor R.Vohidov Bobur Mirzoning ma'lumotlariga tanqidiy qarash zarurligini ta'kidlar ekan, shunday yozadi: «*yana Alisher Navoiyning o'z maktublarini yig'ishtirib, to'plam* («Munshaot») tuzganligi Bobur Mirzoga Abdurahmon Jomiyga taqlidday tuyuladi. Adabiy jarayonda, daho san'atkolar faoliyatida ko'zga tashlanadigan yaxshi, ijobiy an'analarini o'rganish, davom ettirish sharaflı ish. Bobur Mirzo ham taqlidni salbiy ma'noda qo'llamagan bo'lishi mumkin» [Vohidov, 1999, 47].

Haqiqatan ham navoiyshunos olimning fikriga qo'shilish mumkin. Balki Bobur Mirzo «Mezon ul-avzon» kabi xattotlar tomonidan yanglish ko'chirilgan nusxalarini bilan tanishgani singari «Munshaot»ning ham qaysi nusxalariga asoslanib fikr yuritganligi haqidagi ma'lumotlar yetib kelmagan. Buning ustiga Alisher Navoiy ustozni va piri Abdurahmon Jomiyga butun umr ergashib, ma'nan intilib kelganligi uning barcha asarlaridan ma'lum. Shuning uchun A.Navoiyning xatlarni to'plab, «Munshaot» tuzganligi ko'p tomonidan: u yashagan davrni, ijtimoiy - siyosiy hayotni o'rganish jihatidan ham, Navoiyni buyuk shaxs va inson sifatida o'rganishda ham katta ahamiyatga egaligi yaqqol ko'rindi.

Ayniqsa, Navoiyning ustozni, piri A.Jomiy o'rtasidagi yozishmalar ham shu jihatdan ahamiyatlidir. Chunki bu maktublar ikki buyuk ijodkor shaxsiyatini, qalbini, bir-birlariga bo'lgan yuksak do'stona munosabatlarini o'rganishda va kelajak avlodga ibrat qilib ko'rsatishda muhimdir.

Jomiy maktublari ustida tadqiqot olib borgan A.O'rınboyev uning 300dan ortiq xatlari mavjudligini ko'rsatar ekan, S.Ayniy, I.Sulton, S.G'aniyeva, F.Olimov, D.Yusupova kabi olimlar tadqiqotlarida bu haqda mulohaza bildirganlarini ko'ramiz. Ayniqsa, yosh olim F.Olimov o'zining

tadqiqotida Navoiyning Jomiyga bag‘ishlangan “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini chuqur tahlil qilganligi ko‘rinadi. Bundan tashqari “Navoiyning ustozi” maqolasida ikki buyuk inson o‘rtasidagi yozishmalarga ham to‘xtaladi [Olimov, 2014, 89].

“Xamsatul-mutahayyirin”ning ikkinchi maqolati Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy bir-biriga yozgan xatlari haqida bo‘lib, navoiyshunos olima D. Yusupova o‘zining “Tarixiy, yodnomha va turli mavzudagi asarlari” maqolasida “Xamsatul-mutahayyirin”dagi bu maktublar Jomiyning ham, Navoiyning ham ba’zi asarlari tarkibiga kiritilganligi haqida fikr yuritadi.

Haqiqatan ham “Xamsatul-mutahayyirin”ning ikkinchi maqolatidagi Jomiy va Navoiyning o‘zaro yozishmalari ularning “beqiyos do‘stliklarini namoyish qiluvchi va asarga alohida joziba hamda ma’no baxsh etuvchi g‘oyat go‘zal va yorqin sahifalardir. Ularda Jomiyning Navoiyga yo‘llagan 15 nomasi va javob xatlari hamda Navoiyning Jomiyga yozgan 15 maktubi va javob nomalari keltirilgan” [G‘aniyeva, 1977, 338]. Bu haqda Navoiyning o‘zi shunday yozadi: “Ul hazrat bila bu faqir orasida o‘tgan ruq’alar bobidakim, ul ruq’alar holo alarning kulliyotida mazkurdur va munshaotlar orasida masturkim, bu faqir javob bitibmen yo aksi”[Navoiy, 1997, 38].

Navoiyshunos olima S.G‘aniyeva bu maktublarni shartli ravishda uchga bo‘ladi. Shundan ikkinchisi badiiy ijod bilan aloqador yozishmalarki, ulardan biri haqida fikr yuritmoqchimiz, chunki ular adabiy-tanqidiy xarakterda bo‘lib, badiiy ijodning muhim masalalariga bag‘ishlangani bilan qimmatlidir. Asarda Jomiyning “Lujjatul-asror” (“Sirlar daryosining chuqur joyi”) va Navoiyning “Tuhfatul-afkor” (“Fikrlar tuhfasi”) qasidalarining yaratilishi, yozilish tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilganki, bu adabiyotshunuslikdagi ijodiy ta’sir masalasini ham aniqlashtirishda yordam beradi.

“Ul Hazrat bu ruq’ani bitib yiborib erdilarkim: «Ba’d az adoi vazoifi duo maqrur ba ijobati samiallohu liman duo marfu’ on ki ba tozagi qoside rasid va qasidai tozav rasonid. (Tarjimasi: Duo qilish vazifalari adosi ijobati bilan olloh xabardonni yuksaltirgandan so‘ngra ma’lum bo‘lg‘aykim, yangidan chopar keldi va yangi qasidani yetkazdi).

*Chu harfe chand xondam z-on qasida
Dili xosonash andar qayd didam.
Dar on asno chu shud chashmi basirat
Kushoda jumla dilho sayd didam [Navoiy, 1997, 39].*

(*Tarjimasi:* U qasidaning bir necha joyini o‘qib, Xoslar dilini unga bog‘langan ko‘rdim. Shu asnoda xushyorlik ko‘zi ochilib, hamma dillarni ovlangan ko‘rdim. Navoiy bu qasidani o‘qib, naqadar xursand bo‘lganini e’tirof etadi. Asarda Navoiy Jomiyning Makkaga safari haqida gapirar ekan, uning Bag‘doddan bir g‘azal (bag‘oyat rangin bir noma) yuborgani haqida so‘zlab, g‘azalning matla’ini keltiradi. Navoiy ham bu g‘azalga tatabbu’ qilib, bir g‘azal yozib yuboradi. Ruq’aning oxirida ushbu ruboyni ham yozib qo‘sadi..

*In noma, na noma, dofei dardi man ast,
Oromi daruni ranjparvardi man ast,
Taskini dili garmu dami sardi man ast,
Ya’ne xabar az mohi jahongardi man ast. [Navoiy, 1997, 42].*

(*Tarjimasi:* Bu maktub, maktub emas, mening dardlarimni daf‘ etuvchidir. Og‘riq bilan qiynalgan ko‘nglimning oromidir. Qaynoq dilim vasovq nafasim taskinidir, Ya’ni mening jahon kezib yurgan mohimdan xabardir).

Jomiy Makkadan qaytgandan keyin Halabda bo‘lgan vaqtida bu ruboyniga javob yozib yuboradi:

*In ruq’a, na ruq’a, moyai har tarab ast,
Tahsili nishotu ayshro xush sabab ast,
Z-in son ki buvad muxtasaru purma’ni*

Go 'yo zi «Javomi ul-kalim» muntaxab ast

Tarjimasi: Bu xat, xat emas, har bir shodlikning negizidir, Xursandchilik va aysh hosil qilishning yaxshi sababidir. Qisqa va ko‘p ma’noli ekanligi bilan, Go‘yoki «Javomi ul-kalim»ning muxtasaridir. («Javomi ul-kalim» – o‘zi qisqa, lekin g‘oyat chuqur ma’noli so‘zlarni o‘z ichiga oluvchi demakdir) [Navoiy, 1997, 43].

Bu maktublarni kuzatar ekanmiz, ikki ijodkorning olijanob qalbi har bir xatda ko‘rinib turadi. Sharq odob-axloqiga xos sertakalluqlik, buyuklik bilan birga, g‘oyat soddalik, odamiylik, kattalarga ta’zim, yoru do’stlarga cheksiz hurmat va muhabbat ushbu xatlarning asosiy motivlarini belgilaydi. Bu xatlar ulug‘ shoirlarning shaxsiyatini, ruhiy olamini, boshqacha qilib aytganda, ma’naviy-ruhiy portretini rostgo‘ylik bilan ifodalaganligi jihatidan muhim adabiy, ijtimoiy ahamiyatga egadir. Chunki ularda Jomiy va Navoiydek buyuk shoirlarning shaxsiyati, ruhiy olami, g‘am va tashvishlari, xursandchiligi, ijodiy muvaffaqiyati, xalq taqdiriga oid o‘y-orzulari, do’stlariga munosabati bevosita yorqin aks etgan.

Ijodkorlarning xatlarini o‘rganish orqali shunday xulosaga kelamiz: ularning xatlari kitobxonlarni do’stning do’stga, hamkasbga, birodariga, umuman, insonning insonga samimiyligini, chuqur hurmat, ehtiromda bo‘lishga o‘rgatadi. Xat yozuvchining mehrga to‘la qalbidagi haroratni xatni oluvchiga ularshadi, uning yuragini ham ilitib, saxovatga to‘ldiradi, desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Alisher Navoiy buni shoirona mubolag‘a bilan quyidagicha ko‘rsatadi:

Noma yozg‘on chog‘da bo‘lmish erdi xunafshon ko‘zum,
Oq varaq gulrang bo‘ldi toki sochti qon ko‘zum.

Yoki

Ul ruq’aki, sochib edi kofur uza anbar,
Har nuqtasi mushk erdi-yu har nuqtasi gavhar-

yetishdi. Nuqtasi mushkini ko‘zum mardumi ustida qo‘ydum va lafzlari gavharini jon rishtasig‘a chektim, ko‘z uyi andin munavvar bo‘ldi va jon kulbasi mundin zeru zevar topti [Navoiy, 2001, 208].

Maktubning insonga ta’sirini bundan ortiq tasvirlab bo‘lmas!

Bu yozishmalardagi janrlar (g‘azal, ruboiy, fard) ikki buyuk ijodkorning samimiyligini do’stligi, bir-biriga bo‘lgan hurmat nishonasi sifatida ifodalansa, ikkinchidan, bu do’stlik orqasida rangin g‘azallaru ruboilarning yaratilishi ham ijobjiy hodisalardan biri ekanligi namoyon bo‘ladi. Badiiy ijod bilan aloqador yozishmalarni o‘rganish birinchidan, Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi buyuk mehrmuhabbat, do’stlik aloqalarini namoyon etsa, ikkinchidan, badiiy asarlarning yaratilish tarixi haqida, ijod qonuniyatlarining ochilmagan qirralari haqida saboq beradi.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Тошкент. 1997. 14-том.
2. Алишер Навоий. Муншаот. Нашрга тайёрловчи: Ю.Турсунов. Тошкент. 2001..»Маънавият».
3. Алишер Навоий. Хамсатул-мутаҳайирин. Муқаммал асарлар тўплами. Тошкент. 1997. 15-жилд.
4. Ахмедова Ш. Мактубот ва адабий танқид. Мелбрун. Glebe Edit. 2019.
5. Бобур З. М. «Бобурнома». Тошкент. 1989.
6. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Тошкент. «Маънавият». 1999.
7. Олимов Ф. Навоийнинг устози:// Шарқ юлдузи. 2014. № 2.
8. Ўринбоев А. Жомий мактублари. Тошкент. 1984.
9. Ганиева С. Хамсатул-мутаҳайирин. Китобда: Ўзбек адабиёти тарихи. 2-том. Тошкент. 1977.

TEZISLAR

Axmedova Shoira. Navoiy va Jomiy maktublarida badiiy ijodga munosabat	586
Abdurahmonova Barno, M. Solijonova. Furqat ijodida navoiyona ohanglar	589
Abdullayeva Marg'uba. Maqolat va hikoyat uyg'unligi	592
Ashirmatova Madina, Xojimatova Barno. Alisher Navoiy asarlarining Turkiya adabiyoti va adabiyotshunosligiga ta'siri	596
Abduraimova Xafiza. Alisher Navoiy g'azaliyotida sad timsoli	599
Nazora Bekova. Alisher Navoiy adabiy merosi tadqiqida Faxriy Hirotiy "Radoyif ul-ash'or" asarining o'rni	603
Dehqonov Akramjon. "Hayratul abror"dagi "tot" so'zi haqida	607
Jamolova Zilola. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida adabiy obzor janriga xos unsurlarning tahlili	610
Jo'raboyev Nosir. Alisher Navoiyning tarixiy asarlari manbalari	614
Jo'rayeva Sobira. Navoiy va Shukuriy	617
Dilfuza Zaripova. Huvaydo ijodida Navoiy an'analari	620
Iskandarov Fayzulla. "Farhod va Shirin" dostonidagi na't boblarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	624
Ibotova M. Alisher Navoiy lirkasida ruhning badiiy ifodasi	627
Meliyev Suvon. Alisher Navoiy va Chingiz Aytmamatov: qiyos hadlari	630
Babanazar Murtazayev. "Sab'ai sayyor" va "Hasht bihisht"da Dilorom obrazi	632
Mamatqulov Muzaffar, Fayzullayeva Obidaxon. Tuyuq janri takomili va Alisher Navoiy tuyuqlari	639
Nazarov Nasriddin. Alisher Navoi phenomenon in the development of cultural processes	643
Rahmatov Mardon. Alisher Navoiy g'azallarida nutq subyekti	647
Rahmonov Vahob, Nishonov Shavkat. Navoiyona badiiyat mo'jizalari	652
Rajabova Ma'rifikat. Alisher Navoiy she'riyatida ruh sayrining badiiy talqini	654
Rahmonova Zulayho. Jonimni habib ayog'i tufrog'ig'a sol..	657
Saidova Rayhon. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ijod va ijod ahli haqidagi qarashlari tahlili	660
Sanakulov Ulug'bek. Alisher Navoiy she'riyatda Layli Va Majnun timsollari talqini an'anasi	664
To'xtamuratov Furqat. Qo'lyozma bayozda Navoiy g'azallari matniy tadqiqi	668
Temirov Farrux. Sadreddin Ayniy – Navoiy ijodiy merosi tadqiqotchisi	671
Tojiyev Dostonjon. Historical significance of "Alisher Navoi international award"	674
Tojixon Sabitova. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy asarlarida shohlar vasfi	678
Tuychiyeva Maxfuza. Navoiy ijodini o'rganish tajribasi bir ruboiy misolida	681
Xalliyeva Gulnoz. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida qiyosiy metodologiya asoslari	685
Xo'jayev Tohir. Navoiy g'azallaridagi ayrim obrazlar xususida	688
Xasanova Barno. Navoiyning peyzaj lirkasi	691
Ulug'murodova Kamola. "Navodir ush-shabob"da Layli obrazining badiiy talqini	694
Haydarova Gulhayo. Alisher Navoiy an'analari va XX asr o'zbek g'azaliyoti	698